

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA MAQOLLARNING MAZMUNAN O‘XSHASH VA FARQLI JIHATLARI

Xayitmurodova Dinora Umirzoq qizi

SamDChTI Ingliz filologiyasi va tillarni o‘qitish nazariyasi fakulteti talabasi

Annotatsiya: *Xalq og‘zaki ijodining o‘ziga xos ko‘rinishi bo‘lgan maqollar jamiyat hayotida alohida o‘rin tutadi. Ushbu maqolada o‘zbek va ingliz tillaridagi maqollarning qo‘llanilishi, ahamiyati va ular o‘rtasidagi mazmuniy o‘xshashlik hamda ayrim farqli tomonlari o‘rganilgan.*

Kalit so‘zlar: *maqol, hikmatli so‘zlar, xalq og‘zaki ijodi, ma’no va mazmun, farqlash, do‘stlik, ahillik.*

Annotation: *Proverbs, as a unique form of oral folklore, play a significant role in society. This article explores the use and importance of proverbs in Uzbek and English, focusing on their similarities in meaning as well as their distinctive aspects.*

Key Words: *Proverb, wise sayings, oral folklore, meaning and content, differentiation, friendship, unity.*

Аннотация: *Пословицы как уникальная форма устного фольклора играют значительную роль в жизни общества. В этой статье исследуется использование и значение пословиц на узбекском и английском языках, уделяя особое внимание их сходству по значению, а также их отличительным аспектам.*

Ключевые слова: *Пословица, мудрые изречения, устный фольклор, смысл и содержание, дифференциация, дружба, единение.*

KIRISH

Maqollar qadimdan xalq donishmandligi va aql ifodasi sifatida shakllangan. Ularni hayot qomusi, o‘ziga xos badiiy va tarixiy solnoma deyish mumkin. Maqollar insonning nutqini ravon va ta’sirchan qiladi, hayotiy muammolarni to‘g‘ri hal qilishga o‘rgatadi, turmushning barcha jihatlariga oid qimmatli maslahatlarni beradi. Xalq og‘zaki ijodining mahsuli bo‘lgan maqollar har bir millat madaniyatining yaxlitligini aks ettiradi. Har qanday xalqning og‘zaki va yozma yodgorliklarida tarixiy xotira, hayotiy tajribalarning asrlar davomida jamlangan hikmatlari mujassamdir. O‘zbek va ingliz xalq maqollari ham ana shunday ilmiy va badiiy tafakkurning mahsuli bo‘lib, ular avloddan-avlodga o‘tib, xalqning eng qimmatli ma’naviy meroslaridan biri sifatida saqlanib kelmoqda.

ASOSIY QISM

Maqollar mavzu jihatidan nihoyatda boy va xilma-xildir. Ular vatanparvarlik, mehnat, ilm-fan, do‘stlik, ahillik, donolik, hushyorlik, sevgi va muhabbat kabi mavzularni qamrab oladi. Shuningdek, salbiy xulq-atvorga oid pand-nasihatlar ham maqollarda o‘z ifodasini topgan. Maqollarda mazmun va shaklning dialektik birligi muhim ahamiyatga ega. Ularning ko‘p hollarda qofiyadoshligi, majoziy ma’noga boyligi, ko‘p ma’noliligi kabi jihatlari

kuzatiladi. Shuningdek, antitezaga asoslangan maqollar ham ko‘p uchraydi, masalan, "Kattaga hurmatda bo‘l, kichikka izzatda" kabi.

Maqollar qisqa va mazmunli iboralar bo‘lib, har bir millatning madaniyati, urf-odatlarini va hayot falsafasini aks ettiradi. Ular turli xalqlarning hayotiy tajribalarini umumlashtirib, o‘ziga xos hikmatni ifodalaydi. Shuningdek, o‘zbek va ingliz maqollari o‘rtasidagi o‘xshashlik ham, asosan, ularning mavzusida namoyon bo‘ladi. Masalan, hayotiy tajriba, mehnatning ahamiyati va halollik kabi mavzular har ikki tilda keng tarqalgan. O‘zbek tilidagi "Mehnat qilgan - doim to‘q bo‘ladi" maqoli ingliz tilidagi "Hard work pays off" maqoliga mazmunan mos keladi. Shuningdek, do‘stlik va halollik mavzusidagi maqollarga misol qilib, "Do‘st kulfatda sinalar" degan o‘zbek maqolini inglizcha "A friend in need is a friend indeed" maqoli bilan solishtirish mumkin. Halollikka oid "Halollik - eng katta boylik" maqoli esa ingliz tilida "Honesty is the best policy" tarzida ifodalanadi.

Biroq, milliy madaniyat va tarixiy sharoitlar tufayli maqollar o‘rtasida sezilarli farqlar ham mavjud. Masalan, o‘zbek tilidagi "Qo‘y ham, bo‘ri ham to‘q bo‘lmaydi" maqoli xalqning chorvachilik hayotiga asoslangan bo‘lib, ingliz tilida unga ekvivalent maqol topish qiyin. Biroq ingliz tilidagi "Don't cry overspilled milk" maqoli esa sodir bo‘lgan voqeani ortga qaytarib bo‘lmashligini anglatib, o‘zbek tilida aynan ushbu maqolning tarjimai uchramaydi. Shunday bo‘lsa-da, bizning tilimizda bu fikrni mazmunan yaqinroq ifodalovchi "Bo‘lgan ish bo‘ldi, o‘tgan kun o‘ldi" yoki "O‘tgan ishga salavot" kabi maqollar mavjud. Turli millatlarning maqollari o‘rtasidagi tafovutlar tabiat va atrof muhit bilan ham bog‘liq bo‘lishi mumkin. Masalan, "El yel bilan - suv sel bilan". Bu maqolda o‘zbek xalqining tabiat va jamoaviy hayotga munosabati aks etgan. Ingliz tilidagi "Make hay while the sun shines" maqoli kishilarning quyoshli kunlardan foydalanib ishini tezroq bitirish kerakligini ulug‘laydi. Shu bilan bir qatorda, maqollar tuzilishi va iboralardagi farqlar orqali ham taqqoslanadi. O‘zbek maqollarida ko‘pincha she‘riy ohang mavjud: ular qisqa, qofiyali va ritmik tarzda shakllangan. Masalan, "Onasi maqtagan qizni olma, yangasi maqtagan qizdan qolma" yoki "Bulbul chamanni sevar - odam Vatanni" kabi maqollar bunga ayni dalildir. Ingliz tilidagi maqollar esa odatda sodda va mantiqiy tarzda ifodalanadi: "Travel broadens the mind". O‘zbek maqollarida xalq og‘zaki ijodining estetik jihatlari ko‘proq aks etsa, ingliz maqollari aniq va bevosita ma’no berishga moyil.

Har bir maqolning vujudga kelishida birorta ibratli voqeaning ahamiyati katta, ya'ni xalq orasida maqolning yashashi uchun hayotiy asos bo‘lishi kerak. Bunday asosga ega bo‘lmagan maqolning umri qisqadir. Jumladan, O‘zbekistonda "Yer haydasang - kuz hayda, kuz haydamasang - yuz hayda" maqoli mashhur. Ammo bu maqol Xorazm viloyatining aksariyat hududlarida tilga olinmaydi. Chunki Xorazmda yer qatlami tuzilishida yerosti suvlari yaqin bo‘lganligi sababli dehqonchilik bilan shug‘ullanadigan odamlar o‘z yerlarini kuzda haydamaganlar. Ma’lum bo‘ladiki, faqat hayot tajribasida tasdiqlangan vaziyat haqidagi maqol xalq orasida yashaydi.

XULOSA

O‘zbek va ingliz maqollari o‘zida hayotiy tajribalar va xalq donoligini mujassam etgan milliy madaniy boylik hisoblanib, ular avlodlarga hayotiy maslahatlar, axloqiy saboqlar va

ilhom beruvchi hikmatlarni yetkazib kelmoqda. Mazkur maqollar o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlarni o‘rganish orqali biz ikki millat madaniyatining o‘ziga xos jihatlarini yanada chuqurroq tushunishimiz va ularning boy madaniy merosini qadrlashimiz mumkin. Shuningdek, maqollar insoniyatning o‘tmishi va kelajagini bog‘lovchi bilim ko‘prigi sifatida ham xizmat qilib kelayotganligini alohida ta’kidlab o‘tishimiz joizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

- 1.Masharipova.Z, O‘zbek xalq og‘zaki ijodi - Toshkent,2007-yil, 30-bet.
- 2.Jo‘rayev.M, Eshonqulov. J, Folklorshunoslikkka kirish (o‘quv qo‘llanma).-Toshkent, 2017-yil,180-bet.
- 3.Sulaymonov.M, O‘zbek folklori (Ma’ruza matni).- Namangan -2006.
4. M.Inoyatov. O ‘zbek xalq ijodiyoti an’analari. -T. 2010,132 b.
5. Аникин В. Теория фолклора. - М.: Наука, 2012, 480 с.
6. M.Jo‘rayev, L.Xudoyqulova. Marosimnoma-T. 2008. 172 b.